



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 190 sahifa,
1-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining innovatsion pedagogik kompetentligini rivojlantirish mexanizmi	10
<i>Mirzaraxonova Maftuna Ibroximjon qizi</i>	
Elementlarini integratsiya qilish: nazariy va amaliy yondashuv	13
<i>Ne'matov Karimjon Shavkat o'g'li</i>	
O'qish savodxonligi darslarida kitobxonlik kompetensiyasini rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari ...	19
<i>Mahmudova Shoira Shavkat qizi</i>	
O'zbek milliy musiqasi asosida talablarda estetik did va ijro madaniyatini rivojlantirish metodikasi.....	25
<i>Gadoyeva Muborak Jumaqulovna</i>	
O'quvchilarning yozuv kompetensiyasini baholash mezonlarini takomillashtirish masalalari.....	30
<i>Abdurashidova Xafiza Abdurashidovna</i>	
Xurshid Do'st Muhammad qissalarida rivoyatchi strategiyasi.....	34
<i>Uzoqova Nargiza Yuldosh qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirishda innovatsion texnologiyalarining ahamiyati	37
<i>Eshpulatov Shakir Nabiyevich, Ahrorova Ozoda Amriddinovna</i>	
"Xonada o'simliklarni o'stirish" intellekt xaritasi (Mind Map) yordamida o'quvchilarda ekologik tarbiya va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish	41
<i>G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlarning tashkiliy-pedagogik jihatlari.....	46
<i>Joldasov Ixtiyor Suyundikovich</i>	
Boshlang'ich sinflarda iqtisodiy tarbiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari	50
<i>N. Asadov</i>	
Bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda kreativ kompetentlik va kasbiy muvaffaqiyat o'rtasidagi bog'liqlik mezonlari.....	53
<i>G. Xamidova</i>	
Gamifikatsiya elementlarining bakalavr talabalarini raqamli resurs yaratishga motivatsiyasiga ta'siri	56
<i>Maxkamova Dilshodaxon Xabibjon qizi</i>	
The Influence of Family Parenting Style on the Formation of Primary School Students' Personality	59
<i>Berdiyeva Mohloroyim Mirzohid qizi</i>	
Noto'liq oilalardagi onalarning tarbiyaviy uslublari va farzandlarining ijtimoiy-psixologik moslashuvi (O'zbekiston namunasida).....	64
<i>Ismoiljonov Ravshan Baxtiyor o'g'li</i>	
Raqamli pedagogika sharoitida interfaol ta'lim metodlari asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish.....	69
<i>Jumaniyozova Donoxon Olimboyevna, Bekmuratova Muhayyo Uralbayevna</i>	
Matematika ta'limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning metodik asoslari.....	73
<i>Mirzayeva Shahlo, Qodirova Muattar Ithom qizi, Rovshanova Yulduz Shovkat qizi</i>	
O'qishga motivatsiya tushunchasi uning nazariy-psixologik tahlili.....	77
<i>Azimova Rushana Zokirjon qizi</i>	
Oliy ta'lim talabalarida akademik prokrastinatsiyaning prediktorlari: akademik motivatsiya, umid va shaxs xususiyatlari	81
<i>Shodiboyev Shohruh Shuhrat o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi markazlar integratsiyasini ta'minlash metodikasi.....	86
<i>Qahhorova Sevara Alimardonovna</i>	
O'quvchi-yoshlarni virtual olam ta'siridan himoya qilishning nazariy asoslari.....	90
<i>Isayeva Gulii Parpiyevna, Ravshanov Umidjon Abdiqodir o'g'li</i>	



Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik tafakkurni oshirishda mantiqiy masalalarning o'rni	93
<i>Xilvatova Go'zal Sultonovna</i>	
Pedagogika tarixini o'qitishda talabalarda tarixiy tafakkurni rivojlantirish	97
<i>Jurayev Bobomurod Tojiyevich</i>	
Bolalarda ona tilida tinglash hissini rivojlantirish usullari	101
<i>Nurmatova Muxlisa Akmal qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida ingliz tilini o'qitish samaradorligini oshirish (Kahoot, Quizlet va Moodle platformalari misolida)	106
<i>Yusupova Shahnoza Abduxafizovna</i>	
Sport maktablarida 16–18 yoshli nayza uloqtiruvchi sportchi-qizlarda portlovchi kuchni rivojlantirish	111
<i>Tursunova Surayyo Botir qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlashda "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlari: amaliyot tahlili	115
<i>Gaffarov Azizjon Muhammadsaidovich</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining faoliyatini samarali tashkil etishning nazariy jihatlari (Learning outcomes) asosida	124
<i>Rabbimova Shaxnoza Soyib qizi</i>	
Bo'lg'usi o'qituvchilarda axloqiy madaniyat fazilatlarini qaror toptirishning pedagogik mexanizmlari	128
<i>G'aniyeva Sayyora Saidmurod qizi</i>	
Yengil atletikachilarning musobaqa jarayonida tibbiy-pedagogik monitoringini takomillashtirish	132
<i>Mamadaliyev Abror Akbarjonovich</i>	
Sun'iy intellekt yordamida rus tilini o'qitish va uning samaradorligi	137
<i>Yagafarova Nazilya Rafailovna, Nazarov Sardor, Onorboyev Kamronbek</i>	
O'quvchilarda ilmiy dalillarni tahlil qilish va xulosa chiqarish kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi	142
<i>Baymurotova Mukaddas Xamdamovna</i>	
Ilmiy muxokamalarda pragmatik kompetentlikning roli	150
<i>Eshbo'riyeva Aziza Muhiddinovna</i>	
Talabalarda kognitiv-pragmatik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning mazmuni	155
<i>To'rabekova Aziza Mirzabek qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda motivatsiyani shakllantirishda interaktiv metodlarning o'rni	159
<i>Qamchibekova Roziyaxon Xasanboy qizi</i>	
Проблема разграничения понятий "концепт" и "понятие" в современной лингвистике: лингвосомиотический и когнитивно-дискурсивный анализ	164
<i>Якунина Ангелина Алишеровна</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida amaliy bezak san'ati naqsh elementlarini raqamli qayta ishlash va arxivlashtirish	169
<i>Jabbarov Rustam Ravshanovich</i>	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining yozuv kompetensiyasini rivojlantirishda Design Thinking texnologiyasining metodik imkoniyatlari	176
<i>Amanbayeva Oydin Urazali qizi</i>	
Tez qalamchizgi mashqlarida psixologik-pedagogik yondashuvlarning ahamiyati	181
<i>Suyunov Navro'z Alisher o'g'li</i>	
Innovatsion yondashuv orqali bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini rivojlantirish konsepsiyasi	186
<i>Xalilov Lenar Shevketovich</i>	

BO'LG'USI O'QITUVCHILARDA AXLOQIY MADANIYAT FAZILATLARINI QAROR TOPTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

UDK 37.034:378.1

G'aniyeva Sayora Saidmurod qizi

Termiz davlat pedagogika instituti,
Maktabgacha ta'lim kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lg'usi o'qituvchilarda adolat, empatiya va mas'uliyat kabi axloqiy madaniyat fazilatlarini shaxsda barqaror ichki holat sifatida qaror toptirish yo'llari ko'rib chiqiladi. Termiz davlat pedagogika instituti 2024–2025-o'quv yilida 150 nafar talaba ishtirokida olib borilgan tadqiqot natijalari tahlil qilinadi. Rol o'yinlari, refleksiya jurnali va dilemma kartalari asosidagi pedagogik mexanizmlar fazilatlarining barqarorlashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatgani kuzatildi. Milliy madaniy an'analarni o'quv jarayoniga qo'shish ham ushbu jarayon samaradorligini oshiradi.

Kalit so'zlar: axloqiy madaniyat, bo'lg'usi o'qituvchilar, fazilatlarini qaror toptirish, pedagogik mexanizmlar, axloqiy barqarorlik.

Abstract: This article examines ways to consolidate ethical culture virtues – fairness, empathy, and responsibility – as stable, internalized characteristics of prospective teachers. The study was conducted at Termez State Pedagogical Institute during the 2024–2025 academic year with 150 student participants. Results indicate that pedagogical mechanisms based on role-playing, reflective journaling, and dilemma cards had a positive effect on the consolidation of stable ethical qualities. Integrating national cultural traditions into the educational process also enhances the effectiveness of this development.

Key words: ethical culture, prospective teachers, consolidation of virtues, pedagogical mechanisms, ethical stability.

Аннотация: В данной статье рассматриваются пути закрепления нравственных качеств культуры справедливости, эмпатии и ответственности как устойчивых внутренних характеристик личности будущего учителя. Анализируются результаты исследования, проведённого в 2024–2025 учебном году с участием 150 студентов Термезского государственного педагогического института. Установлено, что педагогические механизмы, основанные на ролевых играх, рефлексивных дневниках и картах дилемм, оказывают положительное влияние на формирование устойчивых нравственных качеств. Включение национальных культурных традиций в учебный процесс также повышает эффективность данного процесса.

Ключевые слова: нравственная культура, будущие учителя, закрепление добродетелей, педагогические механизмы, нравственная устойчивость.

KIRISH

O'qituvchilik kasbi yosh avlodga bilim berish bilan bir qatorda, ularda to'g'ri axloqiy dunyoqarashni shakllantirish mas'uliyatini ham o'z zimmasiga oladi. Pedagog o'quvchilar bilan muloqot jarayonida, baholash faoliyatida hamda ota-onalar bilan munosabatlarda o'zining ichki fazilatlarini muntazam namoyon etadi. Ta'lim jarayonida yuzaga keladigan murakkab vaziyatlar ko'pincha qat'iy qoidalar asosidagina emas, balki shaxsning axloqiy barqarorligi va kasbiy fazilatlarini asosida samarali hal etiladi.

Aristotelning (mil. av. IV asr, 2009) fazilat etikasiga ko'ra, yaxshilik bir martalik xatti-harakat emas, balki muntazam mashq va tajriba orqali odatga aylangan xarakter xususiyatidir. Mazkur g'oya keyinchalik Kohlberg tomonidan ham axloqiy rivojlanish nazariyasida rivojlantirilgan bo'lib, unga ko'ra, axloqiy qaror qabul qilish uzoq muddatli ta'lim va amaliyot jarayonida shakllanadigan hamda barqarorlashadigan ko'nikmalar majmuasidan iboratdir (Kohlberg, 1981, p. 18). Ushbu nazariy yondashuvdan kelib chiqib, bo'lg'usi pedagoglarda axloqiy fazilatlarini maqsadli va tizimli ravishda rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim talablaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston ta'lim tizimida 2025–yilda o'qituvchilar uchun Axloqiy kodeks qabul qilindi (O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, 2025). Mazkur kodeks pedagog faoliyatining axloqiy me'yorlarini belgilab beradi hamda o'qituvchilarning kasbiy madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Shu bilan



birga, ushbu fazilatlarining shaxsda mustahkam va barqaror sifat sifatida qaror topishi oliy ta'lim muassasalarida qo'llaniladigan pedagogik mexanizmlarning samaradorligiga ham bevosita bog'liqdir. Ushbu tadqiqot doirasida quyidagi savollarga javob izlanadi: fazilatlarini qaror toptirish deganda nima tushuniladi, talabalar bu jarayonda qanday omillar bilan to'qnashadi hamda qaysi pedagogik mexanizmlar yuqori samaradorlikni ta'minlaydi?

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, axloqiy fazilatlarining shakllanishi mahalliy va xorijiy tadqiqotlarda turli yondashuvlar asosida o'rganilgan.

Sh. B. Qo'chqorov¹ (2020) bo'lg'usi o'qituvchilarning pedagogik dilemmalar oldidagi tajribasizligini asosiy to'siqlardan biri sifatida belgilagan. Muallif ushbu xulosani tadqiqotning birinchi topilmasi bilan bog'laydi, biroq amaliy mexanizmlarni yanada takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydi.

A. R. Karimov (2023)² milliy madaniy an'analarni o'quv jarayoniga qo'shish axloqiy tarbiya samaradorligini oshirishini asoslagan. Muallif ushbu yondashuvni muhokama qismida zamonaviy simulyatsion texnologiyalar bilan uyg'unlashtiradi.

M. A. Turayev (2023)³ dilemma kartalari asosidagi mashg'ulotlar talabalarning axloqiy his etish komponentini rivojlantirishini empirik tarzda isbotlagan. Muallif bu topilmani bevosita dalil sifatida qabul qiladi.

Aristotel (mil. av. IV asr)⁴ yaxshilik takroriy mashq orqali xarakter xususiyatiga aylanishini asoslagan. Muallif bu g'oyani tadqiqotning markaziy nazariy asosi sifatida qabul qiladi.

L. Kohlberg (1981)⁵ axloqiy ko'nikmalar uzoq muddatli amaliyot orqali barqarorlashishini isbotlagan. Muallif bu modelni foydali deb baholaydi, shu bilan birga, milliy pedagogik an'analarni e'tiborga olish zarurligini ta'kidlaydi.

A. Bandura (1991)⁶ axloqiy xulq-atvor kuzatish va taqlid orqali o'rganilishini ko'rsatgan. Muallif ustoz namunasi mexanizmini o'zbek "ustoz-shogird" an'anasi bilan uyg'un tarzda qo'llaydi.

K. Gilligan (1982)⁷ munosabatlarni saqlashga intilish ayrim holatlarda adolat fazilatining namoyon bo'lishiga ta'sir qilishi mumkinligini asoslagan. Muallif bu g'oyani qadriyatlar ziddiyatini tushuntirishda qo'llaydi, biroq har ikki fazilat pedagog shaxsida parallel rivojlantirilishi zarur deb hisoblaydi.

L. Nucci (2001)⁸ fazilatlarini barqarorlashtirish uchun tushunish, his etish va odatlanish kabi uch shartni asoslagan. Muallif ushbu modelni tadqiqot xulosasining asosiy nazariy ramkasi sifatida belgilaydi.

J. R. Rest (1986)⁹ axloqiy sezgirlik, mulohaza, motivatsiya va harakatdan iborat to'rt komponentli modelni ishlab chiqqan hamda motivatsiya bo'g'inini rivojlantirish zarurligini aniqlagan. Muallif bu topilma tadqiqotdagi 25 foizlik nazariya-amaliyot tafovutini tushuntirishga xizmat qiladi, deb baholaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot Termiz davlat pedagogika institutida amalga oshirildi. Tadqiqot ishtirokchilari sifatida pedagogika yo'nalishida tahsil olayotgan 2–4-kurs talabalar jalb etildi. Jami 150 nafar talaba tadqiqotda ishtirok etdi, ulardan 68 %ini qizlar va 32 %ini o'g'il bolalar tashkil etdi. Ishtirokchilarning yoshi 18–25 oraliqida bo'ldi.

Tadqiqot jarayonida uch bosqichli metodologik yondashuv qo'llanildi. Dastlab, axloqiy rivojlanish va fazilatlar nazariyasiga oid ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Asosiy bosqichda yopiq va ochiq savollardan iborat so'rovnoma o'tkazilib, talabalar tomonidan adolat, empatiya va mas'uliyat fazilatlarining kundalik pedagogik amaliyotda qay darajada izchil qo'llanilishi baholandi. Yakuniy bosqichda esa bir semestr davomida rol o'yinlari hamda refleksiya jurnali texnikasi tatbiq etilib, tajriba oldi va tajribadan keyingi natijalar o'zaro taqqoslandi. Barcha foiz ko'rsatkichlari so'rovnoma va kuzatuv natijalari asosida hisoblab chiqildi.

Tadqiqotning ayrim cheklovlari ham mavjud. Xususan, tanlanma faqat bitta oliy ta'lim muassasasini qamrab olgani sababli natijalarni umumlashtirishda ehtiyotkorlik talab etiladi. Shuningdek, so'rovnoma natijalari ishtirokchilarning o'z-o'zini baholashiga asoslangani bois ayrim subyektiv omillar kuzatilishi mumkin. Shu bilan birga, fazilatlarining uzoq muddatli barqarorligini aniqlash uchun bitiruvchilarning keyingi pedagogik faoliyatini muntazam kuzatish istiqbolli yo'nalish sifatida baholanadi.

1 Qo'chqorov, Sh. B. (2020). Pedagogik dilemmalar va ularni hal etish yo'llari. Ilm-ziyo nashriyoti, Toshkent. 34-bet.

2 Karimov, A. R. (2023). O'zbekiston pedagogikasida axloqiy tarbiya: nazariya va amaliyot. Fan va texnologiya nashriyoti, Toshkent. 87-bet.

3 Turayev, M. A. (2023). Axloqiy madaniyat va kasbiy tayyorgarlik. Farg'ona davlat universiteti ilmiy jurnali, 5, 112–119-betlar.

4 Aristotle. (350 BCE/2009). Nicomachean Ethics (W. D. Ross, Trans.). Oxford University Press.

5 Kohlberg, L. (1981). The Philosophy of Moral Development: Moral Stages and the Idea of Justice. Harper & Row. 18-bet.

6 Bandura, A. (1991). Social cognitive theory of moral thought and action. In W. M. Kurtines & J. L. Gewirtz (Eds.), Handbook of Moral Behavior and Development (Vol. 1, pp. 45–103). Lawrence Erlbaum Associates. 71-bet.

7 Gilligan, C. (1982). In a Different Voice: Psychological Theory and Women's Development. Harvard University Press. 74-bet.

8 Nucci, L. (2001). Education in the Moral Domain. Cambridge University Press. 72-bet.

9 Rest, J. R. (1986). Moral Development: Advances in Research and Theory. Praeger Publishers. 3-bet.

TAHLIL VA NATIJALAR

3.1. Nazariya va amaliyot orasidagi tafovut

So'rovnoma natijalariga ko'ra, talabalarning 65 foizi adolat fazilatini pedagogik faoliyati uchun eng muhim sifat deb baholagan (so'rovnoma natijalari, 2025). Biroq amaliy simulyatsiyalar jarayonida ushbu fazilatni barqaror va izchil tarzda namoyon eta olganlar ulushi atigi 40 foizni tashkil etdi (kuzatuv natijalari, 2025). Mazkur 25 foizlik tafovut fazilatning nazariy jihatdan anglanganini, ammo amaliy faoliyatda hali to'liq mustahkam qaror topmaganini ko'rsatadi.

Empatiya fazilati bo'yicha ham shunga o'xshash natijalar kuzatildi. Talabalarning 58 foizi empatiyani muhim fazilat sifatida e'tirof etgan bo'lsa, uni amaliy vaziyatlarda izchil namoyon eta olganlar 35 foizni tashkil etdi. Bu holat axloqiy fazilatlarini bilish va ularni real pedagogik vaziyatlarda qo'llash o'rtasida muayyan farq mavjudligini ko'rsatadi.

Restning (1986, p. 3) to'rt komponentli modeliga ko'ra, axloqiy harakat quyidagi bosqichlardan iborat: axloqiy sezgirlik, axloqiy mulohaza, axloqiy motivatsiya hamda axloqiy xarakter, ya'ni harakat qilish qobiliyati. Tadqiqot natijalari talabalarda dastlabki ikki komponent nisbatan yaxshi shakllanganini ko'rsatdi. Shu bilan birga, axloqiy motivatsiya, ya'ni to'g'ri qarorni shaxsiy manfaatlardan ustun qo'ya olish irodasini yanada rivojlantirish zarurligi aniqlandi. Aynan ushbu omil fazilatlarining shaxsda mustahkam qaror topishida muhim ahamiyat kasb etadi.

3.2. Asosiy to'siqlar

Tadqiqot davomida axloqiy fazilatlarining qaror topishiga ta'sir etuvchi uchta asosiy omil aniqlandi.

Birinchi omil – pedagogik tajribaning yetarli shakllanmaganligi. Real sinf muhiti bilan bevosita ishlash tajribasiga ega bo'lmagan talabalar murakkab axloqiy vaziyatlarda barqaror qaror qabul qilishda qiyinchilikka duch kelishi kuzatildi (Qo'chqorov, 2020, b. 34).

Ikkinchi omil – qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash zarurati. Ishtirokchilarning 43 foizi ayrim vaziyatlarda yaqin insonlar manfaatini adolat mezonidan ustun qo'yishga moyillik bildirgan (so'rovnoma natijalari, 2025). Mazkur holat Gilliganning (1982, p. 74) g'amxo'rlik etikasi konsepsiyasi bilan izohlanadi. Unga ko'ra, insonlar o'rtasidagi munosabatlarni saqlashga intilish ayrim holatlarda adolat tamoyilining namoyon bo'lishiga ta'sir qilishi mumkin. Shu sababli pedagoglarda har ikki qadriyatni uyg'un rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Uchinchi omil – vaqt omili bilan bog'liq. Pedagogik faoliyat jarayonida o'qituvchi ayrim vaziyatlarda qisqa vaqt ichida murakkab qaror qabul qilishi talab etiladi. Bunday holatda axloqiy tafakkurni tezkor va samarali qo'llash ko'nikmasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

3.3. Samarali pedagogik mexanizmlar

Tadqiqot natijalari rol o'yinlari eng samarali pedagogik mexanizmlardan biri ekanligini ko'rsatdi. Talabalar murakkab ota-onalar uchrashuvi, sinfdagi nizolarni hal qilish hamda adolatli baholash kabi vaziyatlarni muntazam mashq qilganlaridan so'ng, barqaror qaror qabul qilish ko'nikmalari bir semestr davomida 30–40 foizga yaxshilangani kuzatildi (kuzatuv natijalari, 2025). Bu holat takroriy mashq fazilatlarining qaror topishida muhim omil ekanligini tasdiqlaydi (Nucci, 2001, p. 72).

Refleksiya jurnali texnikasi ham samarali natija berdi. Har bir mashg'ulotdan so'ng maxsus savollarga yozma javob bergan guruhda axloqiy xatolar ko'rsatkichi ikki semestr davomida 50 foizga kamaygani aniqlandi (kuzatuv natijalari, 2025). Yozma refleksiya talabaning o'z fikrlash jarayonini tahlil qilishiga yordam beruvchi metakognitiv ko'nikma sifatida axloqiy fazilatlarining ongli va barqaror shakllanishiga xizmat qiladi.

Dilemma kartalari asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda murakkab pedagogik vaziyatlar tasvirlangan kartalardan foydalangan ishtirokchilarning 70 foizi o'z ehtimoliy xatolarini mustaqil ravishda aniqlay olgani kuzatildi (kuzatuv natijalari, 2025). Ushbu natija fazilatlarining his etish komponenti rivojlanayotganidan dalolat beradi (Turayev, 2023, b. 115).

Tadqiqotda samarali deb baholangan yana bir mexanizm – ustoz namunasi bo'ldi. Talabalar axloqiy xulq-atvorni, avvalo, kuzatish va taqlid qilish orqali o'zlashtiradilar (Bandura, 1991, p. 71). O'qituvchining o'z xatosini ochiq tan olishi yoki murakkab qarorlarni talabalar bilan birgalikda muhokama qilishi amaliy axloqiy namuna sifatida muhim ta'sir ko'rsatadi. Bunday yondashuv nazariy ma'lumotlarga nisbatan talabalarda chuqurroq va barqarorroq pedagogik taassurot shakllantiradi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, axloqiy madaniyat fazilatlarini qaror toptirish jarayoni passiv bilim berish orqali emas, balki faol tajriba, muntazam takrorlash va refleksiya asosida samarali shakllanadi. Aristotel, Bandura hamda Nucci kabi tadqiqotchilar ham ushbu yondashuvni turli nazariy asoslar orqali tasdiqlaganlar.



Tadqiqot davomida samarali deb baholangan pedagogik mexanizmlar ta'lim dasturlariga hali to'liq integratsiya qilinmaganligi aniqlandi. Buning asosiy sabablari ikki yo'nalishda namoyon bo'ladi. Birinchidan, amaldagi o'quv dasturlari ko'proq nazariy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgani sababli amaliy mashg'ulotlar uchun vaqt va imkoniyat nisbatan cheklangan. Ikkinchidan, mazkur pedagogik usullarni samarali qo'llash o'qituvchilardan ham maxsus metodik tayyorgarlik va amaliy ko'nikmalarni talab etadi.

Shuningdek, milliy madaniy an'analarni o'quv jarayoniga integratsiya qilish muhim pedagogik omillardan biri sifatida namoyon bo'ldi. O'zbek pedagogik an'analari xalq ertaklari, milliy qadriyatlar hamda tarixiy shaxslar hayotidan olingan namunalar talabalar uchun yanada yaqin, tushunarli va ta'sirchan hisoblanadi. Bunday yondashuvni zamonaviy simulyatsion texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish axloqiy fazilatlarini milliy-madaniy identitet bilan bog'lashga hamda ularning yanada chuqur va barqaror shakllanishiga xizmat qiladi (Karimov, 2023, b. 87).

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari bo'lg'usi o'qituvchilarda axloqiy madaniyat fazilatlarini qaror toptirish uchun uch muhim omilni bir vaqtda ta'minlaydigan pedagogik tizim zarurligini ko'rsatdi. Bular: fazilatni anglash, his etish hamda muntazam odatlanish orqali uni barqarorlashtirish jarayonlaridir (Nucci, 2001, p. 72).

Tadqiqot natijalariga asoslanib, O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari uchun quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi: pedagogika yo'nalishlari o'quv dasturlariga axloqiy fazilatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan amaliy kurslarni kiritish maqsadga muvofiqdir. Mashg'ulot vaqtining kamida 15 foizini rol o'yinlari, refleksiya mashqlari hamda dilemma muhokamalariga ajratish tavsiya etiladi. Shuningdek, milliy madaniy materiallar, jumladan xalq ertaklari va tarixiy shaxslar faoliyatiga oid misollarni zamonaviy simulyatsion texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish pedagogik ta'sir samaradorligini yanada oshiradi.

Kelgusidagi tadqiqotlar uchun bir nechta istiqbolli yo'nalishlar tavsiya etiladi. Jumladan, bitiruvchi pedagoglarning maktabdagi kasbiy faoliyatini uzoq muddatli kuzatish, turli oliy ta'lim muassasalari o'rtasida qiyosiy tahlillar o'tkazish hamda raqamli platformalarning mahalliy ta'lim muhitiga moslashuv imkoniyatlarini o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Aristotle. (350 BCE/2009). *Nicomachean Ethics* (W. D. Ross, Trans.). Oxford University Press.
2. Bandura, A. (1991). Social cognitive theory of moral thought and action. In W. M. Kurtines & J. L. Gewirtz (Eds.), *Handbook of Moral Behavior and Development* (Vol. 1, pp. 45–103). Lawrence Erlbaum Associates.
3. Gilligan, C. (1982). In a Different Voice: Psychological Theory and Women's Development. Harvard University Press.
4. G'aniyeva, S. S. (2025). O'qituvchilarning o'quvchilar bilan hamkorlik munosabatlari. "Maktabgacha va maktab ta'limi" pedagogik, psixometodologik va tabiiy fanlarga ixtisoslashgan ilmiy jurnali, № 6, iyun.
5. Karimov, A. R. (2023). O'zbekiston pedagogikasida axloqiy tarbiya: nazariya va amaliyot. Fan va texnologiya nashriyoti, Toshkent.
6. Kohlberg, L. (1981). *The Philosophy of Moral Development: Moral Stages and the Idea of Justice*. Harper & Row.
7. Nucci, L. (2001). *Education in the Moral Domain*. Cambridge University Press.
8. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. (2025). O'qituvchilar uchun axloqiy kodeks. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi.
9. Qo'chqorov, Sh. B. (2020). Pedagogik dilemmalar va ularni hal etish yo'llari. *Ilm-ziyo nashriyoti*, Toshkent.
10. G'aniyeva, S. S. (2025). Bo'lg'usi o'qituvchilarni media ta'limdan foydalanishga o'rgatish. "Maktabgacha va maktab ta'limi" pedagogika va psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnali, № 9, sentabr, 814–816-betlar.
11. G'aniyeva, S. S. (2024). Qadriyatlar nazariyalari asosida talabalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasining tarixiy tahlili. *Ta'lim, fan va innovatsiya ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnali*, № 5, 411–414-betlar. ISSN 2181–8274.
12. Rest, J. R. (1986). *Moral Development: Advances in Research and Theory*. Praeger Publishers.
13. Turayev, M. A. (2023). Axloqiy madaniyat va kasbiy tayyorgarlik. *Farg'ona davlat universiteti ilmiy jurnali*, 5, 112–119.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.